**Emro Science and Education**
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317260

# O‘ZBEKISTONDA XALQARO TRANSPORT YO‘LAKLARI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

**Axunov Muxammadamin**
Andijon mashinasozlik instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dots.nti, i.f.n.
E-mail: axunov@gmail.com
Phone: +998972736877
**Shukurov Umidbek**
Andijon mashinasozlik instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xalqaro savdoda transport koridorlarining ahamiyati qay darajada Ekanligi borasidagi tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Transport yo‘laklari iqtisodiy o‘sish, kambag‘allik, ish o‘rinlari, tenglik, atrof-muhit sifati va iqtisodiy barqarorlik kabi rivojlanish natijalarining potensial to‘plamiga ta’siri orqali kengroq iqtisodiy foyda va xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Transport koridorlarining qanday ahamiyatga Ega Ekanligini tushunish uchun ushbu tadqiqot yirik transport koridorlarini ahamiyatini baholovchi adabiyotlarni miqdoriy ko‘rib chiqishni o‘z zimmasiga oladi. Bunda yo‘llar, relslar va havo yo‘llariga E’tibor beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro savdo, eksport, import, bojxona siyosati, ta’rif to‘siqlar, nota’rif to‘siqlar, CAREC, iqtisodiy o‘sish.

Har bir davlatning iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanishi ko‘p tomondan ularning transport kommunikatsiyalarining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Sharq va G‘arb davlatlarini bog‘lovchi xalqaro karvon yo‘llari kesishgan, Buyuk Ipak yo‘li markazida joylashgan Markaziy Osiyo davlatlari jumladan, O‘zbekistonning undagi joylashuvi mamlakatning logistik jihatdan rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Bizga ma’lumki, har qanday davlat xalqaro munosabatlar subyekti sifatida shaxs, jamiyat va davlatning muhim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mintaqaviy va xalqaro maydonda o‘z faoliyatini olib boradi.

Bugungi kunda mintaqa davlatlarining dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqa olmasliklari natijasida eksport-import operatsiyalarida qo‘shimcha transport xarajatlari yuzaga kelmoqda. Mazkur xarajatlarni qisqartirish maqsadida mintaqa davlatlari o‘zlarining transport strategiyalarini qabul qilgan holda, jahon bozorlariga chiqish uchun qulay va muqobil hisoblangan transport koridorlarini shakllantirmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Prezident lavozimidagi faoliyatining ilk kunlaridanoq Markaziy Osiyoni yagona mintaqa sifatida rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligini e’tiborga olgan holda, faol mintaqaviy siyosat yuritish, Markaziy Osiyoda qulay siyosiy muhit yaratish, mintaqadagi mamlakatlar bilan



Published: 28.03.2024

**Cite this article:** Axunov Muxammadamin, Shukurov Umidbek (2024). O‘zbekistonda xalqaro transport yo‘laklari tizimini rivojlantirish. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317260

*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

barcha yo‘nalishlarda, jumladan, O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor tarmoqlaridan bo‘lgan transport sohasi bo‘yicha konstruktiv va o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni belgilab bergan edi.

Mamlakatimizda transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish va tranzit yuk tashish hajmini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 2015-2019 yillarda muhandislikkommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi amalga oshirilmoqda. Dastur milliy transport tarmog‘ini rivojlantirish sohasida xalqaro talablar va standartlarga javob beradigan yaxlit kompleks 6 Carecprogram.org sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi 24 strategiyani ishlab chiqish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini hududiy va jahon bozoriga olib chiqishni hisobga olgan holda ushbu strategiyani xalqaro transport tizimiga keng integratsiyalashni ta’minlashni ko‘zda tutadi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda transport-tranzitsalohiyatini yanada rivojlantirish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Transport tizimining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, O‘zbekiston hududidan o‘tish uchun mavjud to‘siqlarni bartaraf etish ishlari amalga oshirilmoqda, bu esa Markaziy Osiyoda xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqani rivojlantirishga qaratilgan muhim loyihalarni amalga oshirish maqsadida o‘tgan yil noyabr oyida Samarqandda “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu tadbirdagi nutqida hozirgi kunda mintaqaviy hamkorlikni barcha muhim sohalar bo‘yicha rivojlantirish tendensiyalari haqida so‘zladi va Markaziy Osiyo bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlatimiz rahbarining asosiy tashabbuslaridan biri – Markaziy Osiyo bo‘yicha BMT rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi, joriy yil iyun oyida BMT Bosh Assambleyasi “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlikk va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlik” rezolyutsiyasini qabul qildi. Rezolyutsiyada transport infratuzilmasi va tranzit yo‘laklarini rivojlantirish, yangi avtomobil va temir yo‘llar, aviaqatnovlarni ochish orqali barcha transport turlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Yirik xalqaro bozorlarni o‘zaro birlashtiruvchi eng qisqa yo‘nalishlar mintaqamiz orqali o‘tadi. Hududimizning transport-tranzit salohiyati uning tarixan Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tagan Buyuk ipak yo‘lining markazidagi geostrategik joylashuvi bilan belgilanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yil mart oyida Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvidagi nutqida mintaqani 25 yirik dengiz portlari va dunyo bozorlari bilan bog‘lash imkonini beradigan transportkommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish ustuvor vazifa ekanini ta’kidlagan edi.

Markaziy Osiyoda mavjud transport yo‘laklarini takomillashtirish va yangilarini shakllantirish dolzarbligini e’tirof etgan holda, davlatimiz rahbari Samarqandda bo‘lib o‘tgan tadbirda Toshkent shahrida transport yo‘laklari bo‘yicha xalqaro konferensiyani tashkil etish tashabbusini ilgari surgan edi. Markaziy Osiyoda qo‘shimcha yuk tashish oqimlarini jalb etish imkonini beradigan yangi transport va tranzit yo‘laklarini shakllantirish, transport va logistika sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganib, xalqaro logistika markazlari tarmog‘ini yaratish, mintaqa transport-logistika salohiyatini rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlarning portlaridan samarali foydalanish uslublarini shakllantirish, Markaziy Osiyoda Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini birlashtiruvchi muhim tranzit yo‘l bo‘lib xizmat qiladigan yagona integratsiyalashgan xabni yaratish masalalari mintaqamiz uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqsad - mintaqa tranzit salohiyatini birgalikda rivojlantirish, xalqaro transport yo‘laklaridan foydalanish CAREC transport koridorlarining kunlik xizmat ko‘rsatish qobiliyati samaradorligini oshirish, xalqaro tashuvlar jarayonidagi turli to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, me’yoriy-huquqiy baza va tarif siyosatini takomillashtirish hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari temir yo‘llarining uzunligi 22 ming kilometrga teng.

Qozog‘iston eng yirik va eng ko‘p foydalaniladigan temir yo‘llar tizimiga ega, uning hissasiga mintaqadagi temir yo‘llarning 66 foizi va barcha yuk tashishlarning 84 foizi to‘g‘ri keladi. Mintaqadagi temir yo‘llarning qariyb 18 foizi O‘zbekiston hududidan o‘tadi va barcha tashishlarning qariyb 11 foizi mamlakatimiz hissasiga to‘g‘ri keladi. Turkmaniston taxminan 12 foiz mintaqaviy temir yo‘llarga egalik qiladi va barcha tashishlarning 4 foizini ta’minlaydi. 1993 yilda Belgiya poytaxtida Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston ishtirokida Bryussel deklaratsiyasi qabul qilingan edi. Mazkur hujjat Yevropadan Qora dengiz, Kavkaz, Kaspiy dengizi orqali o‘tib, Markaziy Osiyo mamlakatlariga chiqish bo‘yicha transport yo‘lagini rivojlantirish maqsadida YEI tomonidan moliyalashtiriladigan TRASEKA texnik ko‘mak bo‘yicha mintaqalararo dasturining amalga oshirilishini boshlab berdi. 1996 yilda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Eron va Turkiya hududlari orqali dunyo bozoriga chiqish imkonini beradigan yangi Transosiyo yo‘lagi – Tejon – Seraxs – Mashhad temir yo‘li ochildi. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch va do‘stona muhit sharoitida transport loyihalarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 Ҳеалей, П. 2004. Тҳе Треатмент оф Спасе анд Пласе ин тҳе Hew Стратегис Спатиал Планнинг ин Эуропе. Интернатионал Ж. Урбан анд Регионал Ресеарч, 28(1): 45–67. Февруарй

2 Говернансе, Инекуалитиес анд Урбан Ланд Маркетс, УН-Ҳабитат, 2010

3 Арнолд, Ж., Оливиер, Г. анд Арвис, Ж-Ф. (2005) Бест П
4 Де Беер, ГРМ, Регионал Девелопмент Сорридорс Анд Спатиал Девелопмент Инитиативес – Соме Суррент Перспестивес Он Потентиалс Анд Прогресс
5. O‘zbekiston Respublikasi “Transport to‘g‘risida”gi qonuni 2021-yil 9-avgust.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrdagi “2018-2022 – yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3422-sonli qarori
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 6-martdagi PQ-4230-son qarori
9. A.T. Shermuhamedov, N.S. Ismailova - XALQARO TRANSPORT KORIDORLARI (O‘quv qo‘llanma). T.: IQTISODIYOT, 2019. – 128 bet.
10. David A. Hensher, John D. Nelson, and Phil Goodwin - «Transport Corridor Management: Principles and Practice» (2017)
11. Uddin and Barter - «Transport Corridor Planning and Development: A Multimodal Approach» (2014)

## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА БУНЁДКОРЛИК ЭҲТИЁЖЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Қувватова Феруза**
Андижон машинасозлик институти “Иқтисодиёт” мутахассислиги 2-босқич магистранти

**Аннотация**. Мақолада янгиланаётган Ўзбекистонда ёш авлодни замонавий билимларга эга бўлган рақобатбардош кадрлар қилиб шаклланишларида бунёдкорлик эҳтиёжларини ўрни ва аҳамияти тўғрисида маълумотлар таҳлил қилинган. Шу билан бирга мақолада аҳамиятга молик мулоҳазалар ва таклифлар берилган.

**Калит сўзлар**. Янги авлод, ахборот коммуникация технологиялари, ахборот асри, интернет, бунёдкорлик эҳтиёжлари, рақамли иқтисодиёт.

Янгиланаётган Ўзбекистонда ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий, мафкуравий соҳаларда инсон капиталига, айниқса, ёшлар тарбиясига беқиёс эътибор берилмоқда. Республикамиз аҳолисининг 60 фоиздан кўпроғи ёшларни ташкил этиши туфайли ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш ва уларнинг манфаатларини ҳар томонлама ҳимоя қилиш устувор йўналишлардан бири сифатида белгиланган.